

OLIV TA'LIMDA AYOLLARNING ROLI

Suvanqulova Gavharbonu

*Jizzax davlat pedagogika instituti Ta'lim muassasalarini boshqaruvi
yo'nalishi 1 bosqich magistranti*

Annotatsiya. Respublikamizda gender tengligi jihatida ayollarning oliy ta'lim muassasalarida o'qishiga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Ta'lim tizimida ayollarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, imtiyozlar va dasturlar bilan tanishishingiz mumkin. Va ayollarning ta'limi haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: gender tengligi, o'qimishli ayol, tavsiyanoma, OTM, "El-yurt umidi" jamg'armasi, doktorantura.

Abstract. In terms of gender equality in our country, great attention is paid to the education of women in higher education. In this article you can get acquainted with the conditions, benefits and programs created for women in the education system of the Republic of Uzbekistan. And you can learn a lot about women's education.

Keywords: gender equality, educated woman, recommendation, university, El-Yurt Umidi Foundation, doctoral program.

Аннотация. В условиях гендерного равенства в нашей стране большое внимание уделяется обучению женщин в высших учебных заведениях. В этой статье вы можете ознакомиться с условиями, льготами и программами, созданными для женщин в системе образования Республики Узбекистан. И вы можете многое узнать о женском образовании.

Ключевые слова: гендерное равенство, образованная женщина, рекомендация, вуз, фонд «Эл-Юрт умиди», докторантура.

Hozirgi jadal rivojlanib borayotgan davrda gender tengligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Ayol oilada xotin, sherik,

tashkilotchi, boshqaruvchi, rejissyor, qayta yaratuvchi, taqsimlovchi, iqtisodchi, ona, intizomchi, o'qituvchi, sog'liqni saqlash xodimi, rassom va malika rolini bir vaqtning o'zida bajaradi. Bundan tashqari, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ayol asosiy rol o'ynaydi. Gender tengligi ayollarning ham erkaklar kabi huquqlarga ega bo'lishligini belgilab beradi, shu jumladan oliy ta'limda o'qish imkoniyatlariga ham egadirlar. O'qimishli ayollar nafaqat qiz farzandlarining ta'lim olishiga yordam berishadi, balki barcha bolalariga yaxshiroq yo'l-yo'riq ko'rsatishlari mumkin. Hozirgi kunda yurtimizda ayollarning Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishiga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ayollarimizni oliy ta'lim bilan qamrab olish maqsadida qo'shimcha chora-tadbirlar, dasturlar va imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda. Hukumat qarori bilan Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Nizomga muvofiq, bunday tavsiyanomalar quyidagi mezonlardan biri asosida beriladi:

- kam ta'minlangan oiladan chiqqan xotin-qizlar;
- to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya'ni ota yoki onasi vafot etgan xotin-qizlar;
- 14 yoshgacha bo'lgan ikki va undan ortiq farzandlarni tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlaridan alohida yashayotgan yolg'iz ayol (erkak)larning qizlari;
- shaxsiy uy-joyga ega bo'lmagan, ijarada yashayotgan oilalar;
- ota-onalardan biri yoki har ikkisi ishsiz bo'lgan va ish qidiruvchi shaxs sifatida aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida hisobda turganlar;
- nogironligi bo'lgan farzandi bor oilalardan chiqqan xotin-qizlar;
- oliy ma'lumotli xotin-qizlar bilan qamrab olish darajasi respublikaning o'rtacha ko'rsatkichlaridan ikki yoki undan ortiq marotaba past bo'lgan tumanlar,

shuningdek, olis va borish qiyin bo'lgan hududlarda yashovchi oilalardagi qiz farzandlar (ularni o'z hududida 3 yil ishlash sharti bilan).

Nizom bilan tavsiyanoma olish tartibi belgilandi. Unga ko'ra, har yili fevral oyida xotin-qizlarga tavsiyanomalar berish bo'yicha ishchi guruhi tuziladi. Tavsiyanoma oliy ma'lumot olish istagida bo'lgan xotin-qizlarga 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga beriladi. Bundan tashqari qonunchiligimizda "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident farmoni qabul qilindi. Farmonga binoan, 2022-yil 1-sentabrdan budjet tashkilotlaridan boshqa barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oyda uzluksiz ish staji bo'lgan ayollarga har oy uchun minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqib budjet hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanadi.

2022/2023-o'quv yilidan:

- OTM, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish uchun banklarga budjetdan har yili 1,8 trillion so'm yo'naltiriladi;

- davlat OTMlarida magistraturada o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab beriladi va bunga har yili kamida 200 milliard so'm ajratiladi;

- xorijiy OTMlarga bakalavriat uchun – 50 nafar, magistratura uchun – 10 nafar xotin-qizlarga har yili "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratiladi;

- har yili 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy budjetdan to'lab beriladi;

- mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlar har yili Oila va xotin-qizlar

davlat qo‘mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat OTMlariga umumiy kvotadan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq kontrakt asosida o‘qishga qabul qilinadi;

- davlat ilmiy tashkilotlari yoki OTM doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib boriladi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ayollar 27% rahbarlik lavozimlarini egallamoqda, - deya xabar beradi. Postda aytilishicha, Ayollarning tadbirkorlik sohasidagi ulushi 25%, siyosiy partiyalarda — 44%, oliy ta’lim tizimida — 46% ni tashkil etmoqda. Ayrim toifadagi xotin-qizlarga OTMga kirish uchun tavsiyanoma beriladi.

Prezident matbuot kotibining yozishicha, 2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlash dasturi qabul qilinadi. Dastur doirasida ayni paytda ayollar ulushi past bo‘lgan aniq fanlar, texnika va huquqshunoslik yo‘nalishidagi OTMlarda xotin-qiz talabalar ulushi hozirgi 24 foizdan 40 foizgacha yetkaziladi. Buning uchun har yili xotin-qizlarning talaba bo‘lishiga kvotaning kamida 50 foizi aniq fanlar, texnika va huquqshunoslik yo‘nalishlari uchun maqsadli ajratiladi. Yangi o‘quv yilidan boshlab oliygoh, texnikum va kollejlarda o‘qiyotgan qizlarga ta’lim kontraktlarini to‘lash uchun ilk marotaba, 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi. “Bu imkoniyat hali bizning tariximizda, umuman bo‘lmagan”, — deydi Shavkat Mirziyoyev.

Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, jahongir bobolarimiz qatorida, bunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug‘vor ishlarga ruhlantirgan fozila ayollar ham ko‘p bo‘lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarda, mahallalarda fidoyilik ko‘rsatmoqda. Ularning og‘irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta’minlash maqsadida so‘nggi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. 2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so‘m kredit va subsidiyalar

ajratilib, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o'qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi. 2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliy ta'limga qabul qilindi. Natijada, o'tgan yili oliy o'quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Umuman, 2020-yildan boshlab, "Ayollar daftari" tizimi yo'lga qo'yilib, unga kiritilgan 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko'mak berilgan.

Yig'ilishda bu boradagi navbatdagi dolzarb vazifalar muhokama qilindi.

– Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xohlasak, avvalo, mo''tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa, jamiyat rozi bo'ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ayollar ta'limida tarixga nazar solgan holda AQSh tajribasini ko'rib o'tishimiz mumkin. Talabalar hisob-kitob tadqiqot markazi ma'lumotlariga ko'ra, Amerika Qo'shma Shtatlarida hozirgi kunda ayollar universitet va kollejlarga o'qishga kirganlarning qariyb 60 foizini, erkaklar esa 40 foizdan sal ko'proqni tashkil qiladi. Ayollar qachon oliy ma'lumot olishni boshladilar? Amerika Qo'shma Shtatlarida 1831 yilda xususiy muassasa sifatida Missisipi kolleji Qo'shma Shtatlardagi ayollarga ilmiy daraja bergan birinchi qo'shma ta'lim kollejiga aylandi. 1831 yil dekabrda u ikki ayolga, Elis Robinson va Ketrin Xollga ilmiy darajalarni berdi. 1836 yilda Wesleyan dunyodagi birinchi ayollar kollejiga aylandi. Keyingi bir necha o'n yilliklarda Barnard, Vassar, Bryn Mawr, Smit va Wellesley kabi boshqa ayollar kollejlari ochildi. Umuman olganda, 1836-1875 yillarda AQShda 50 ta ayollar kolleji o'z eshiklarini ochdi. Amerika kollejlari va universitetlarida har to'rt erkakka olti nafar ayol to'g'ri keladi. Bu oliy ta'lim tarixidagi eng katta ayol-erkak gender tafovutidir va u tobora kengayib bormoqda. Yaqinda The Wall

Street Journal gazetasining xabar berishicha, o'tgan yili AQSh kollejlari besh yil avvalgiga qaraganda 1,5 millionga kam talaba qabul qilgan.

Foydalanilgn adabiyotlar

1. Рашидова Ф. Ш. Иностранные Инвестиции В Развитии Предпринимательства–Как важный фактор формирования среднего класса в Узбекистане //Central asian journal of social sciences and history. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 76-86.
2. Рашидова Ф. Ш. УЗБЕКИСТАН-ЮЖНАЯ КОРЕЯ: ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДВУСТОРОННИХ ОТНОШЕНИЙ В ИСТОРИЧЕСКОМ КОНТЕКСТЕ //НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS. – С. 24.
3. Рашидова Ф. Ш. СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В СФЕРУ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ НА ПРИМЕРЕ СТРАН ЕС) //Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история. – 2017. – С. 16-23.
4. Rashidova F. S. UZBEKISTAN-CHINA IS ON THE WAY OF STRENGTHENING BILATERAL RELATIONS //Theoretical & Applied Science. – 2017. – №. 12. – С. 80-86.
5. Рашидова Ф. Ш. УЗБЕКИСТАН-ЯПОНИЯ НА ПУТИ УКРЕПЛЕНИЯ ВЗАИМОВЫГОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА //Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история. – 2018. – С. 17-24.
6. Rashidova F. S. Growth of small business and private entrepreneurship at a new strategic stage of development //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 5. – С. 2473-2479.

7. Рашидова Ф. Ш. Иностранные Инвестиции В Развитии Предпринимательства–Как важный фактор формирования среднего класса в Узбекистане //Central asian journal of social sciences and history. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 76-86.
8. Рашидова Ф. Ш. Роль женского предпринимательства в развитии и процветании государства //Научный вестник СамГУ. Серия" Гуманитарные науки". – 2013. – №. 4 (80). – С. 18.